

DUTOR CHOLG'USI HAMDA IJROCHILIGINING TARIXIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Bekzod Choriyev,

TerDU "Musika ta'limi" kafedrası o'qituvchisi
Farangiz Norboyeva, Terdu talabasi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada o'zbek milliy cholg'ularidan bo'lmish dutor cholg'usining tarixiy shakllanish jarayoni hamda ijro amaliyotiga tegishli ma'lumotlar keltiriladi.

Kalit so'zlar:

Dutor, Zaynulobiddin Al-Husayniy, qonun, cholg'u, ta-komillashtirish, rez, terma zarb, ufori zarb, tanovor zarb.

Аннотация:

В данной статье представлены сведения об историческом процессе формирования одного из узбекских национальных инструментов — дутара, а также об особенностях исполнительской практики на нём.

Ключевые слова:

Дутар, Зайнулобиддин аль-Хусайни, канон, музыкальный инструмент, совершенствование, рез (вид штриха), терма зарб, уфори зарб, тановор зарб.

Abstract:

This article provides information on the historical formation process of the dutar, one of the Uzbek national instruments, as well as insights into its performance practice.

Key words:

Dutar, Zaynulobiddin Al-Husayni, canon (law/qanun), musical instrument, improvement (perfection), rez, terma zarb, ufori zarb, tanovor zarb.



Kirish:

O'zbek xalqi buyuk tarixi, juda boy madaniyat va ma'rifat egasi bo'lishi bilan bir qatorda milliy musiqiy merosga ega xalqdir. Davlatimizning barcha rivojlanish davrlarida ham millatimizning musiqaga bo'lgan muhabbatiga guvoh bo'lamiz. Musiqa o'zining takrorlanmas tabiati bilan insonning ma'naviy dunyosiga katta ta'sir qilish kuchiga ega. Farzand tarbiyasida kuy va ohanglar ta'siri his-tuyg'uning shakllanib o'sishi, oilaga bo'lgan muhabbat, vatanparvarlik ruhi, ezgulikka intilish, idrok va tafakkurning shakllanishi, tabiatni asrash, go'zallikni sevisish kabi insoniy qadriyatlarga ega bo'lishga xizmat qiladi.

“Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.02.2022-yildagi PQ-112-son qarorining qabul qilinishi fuqarolarga madaniy dam olish xizmatlarini ko'rsatish darajasini oshirish, Respublikaning barcha hududlarida teatr, sirk va boshqa turdagi ommaviy-madaniy va konsert-tomosha tadbirlarini tizimli ravishda yo'lga qo'yish, madaniyat va san'at sohasida iste'dodli yosh ijodkorlarni izlab topish va qo'llab-quvvatlash, ta'lim muassasalarini milliy cholg'ular, musiqa darsliklari, notalar to'plamlari va o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlashning yaxlit tizimini yaratish chora tadbirlari rivojlanish va taraqqiy etishga qaratilgan.¹ “O'zbekiston davlat konservatoriyasi faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorida xalqimiz, xususan, yoshlarimizning dunyoqarashi, ma'naviy saviyasi va estetik tarbiyasini yuksaltirishda g'oyat muhim o'rin va ahamiyatga ega bo'lgan musiqa san'atini har tomonlama rivojlantirish, boy musiqiy merosimizni chuqur o'rganish, yosh avlodni milliy va jahon musiqa san'atining mumtoz namunalari muhabbat ruhida tarbiyalash, soha uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida musiqa san'ati ta'lim muassasalarini maxsus adabiyotlar, o'quv qo'llanmalar, musiqiy adabiyotlar, o'quv uslubiy majmualar hamda nota matnlari bilan ta'minlash maqsadida zamonaviy yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratish vazifasi qo'yilgan.¹

Ma'lumki, xalqimizning musiqiy madaniy hayotida cholg'u ijrochiligi alohida o'ringa ega. Buni biz musiqiy cholg'ular turlarining xilma-xilligida ko'rishimiz mumkin. Misol uchun nay, qo'shnay, ruboblar turlari bo'yicha, g'ijjaklar, tanbur, ud, chang, qonun, karnay, surnay, doira, nog'ora va albatta dutor va dutorsimon cholg'ular mohir ijrochilar amaliyotida yakkaxon, ansambl, orkestrlarda qo'llanilib o'z muxlislariga ega. Ularning barcha siru-sinoatlarini ilmiy nazariy tadqiq etish, soddadan murakkabgacha bo'lgan ijro uslublar asoslarini yosh avlodga yetkazish har bir murabbiyning burchidir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya: Dutorning tarixiy ildizlari juda qadimga borib taqaladi. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, Tuproqqal'a saroyida (III-IV asrlar) olib borilgan qazishmalar davomida arfa va ikki torli udsimon cholg'ular tasviri topilgan bo'lib, bu o'sha davrdagi boy cholg'u madaniyatidan dalolat beradi. Temuriylar davri esa musiqiy san'atning chinakam uyg'onish davri bo'lgan. Tadqiqotda quyidagi manbalar tahliliga tortildi: Zaynulobiddin Al-Husayniyning “Qonun” risolasi: Alisher Navoiy buyurtmasi bilan yozilgan ushbu manbaning 16-bobi “Dar bayoni dutor” deb nomlanib, unda dutor haqida ilk yozma ma'lumotlar keltirilgan. Abu Nasr Forobiy ma'lumotlari: Olimning qayd etishicha, Xuroson tanburi o'zining ko'plab belgilari bilan zamonaviy dutori eslatadi. Zamonaviy tadqiqotlar: J. Rasultoyev, T. Zufarov va T. Laminova kabi olimlarning ishlari dutor ijrochiligining nazariy asoslarini o'rganishda metodologik baza bo'lib xizmat qildi.

Darhaqiqat, o'zbek milliy cholg'ulari o'zining rang-barangligi va jozibadorligi bilan boshqa xalqlardan ajralib turadi. Azal-azaldan har bir o'zbek xonadonida biror-bir cholg'u asbobi bo'lgan. Hozirgi kunda ham bu an'ana davom etmoqda. “Xorazmning kushon davriga oid ma'naviy-madaniy yodgorliklar juda boy va ajoyibdir. Jumladan, 1945-1950-yillar mobaynida olib borilgan eramizning III-IV asriga oid Tuproqqal'a saroyining qazish ishlari vaqtida juda ko'p sonli devoriy yozuvlar topilgan bo'lib, ular orasida uchta musiqiy cholg'uning tasviri ham aniqlangan. Bular: oltita torli kichik arfa, ikkita torli kichik udsimon cholg'u va qumsoat shaklidagi ikkiyoqlama zarbli cholg'ular hamda ushbu uchta cholg'uga monand uchta musiqachi ayollar tasvirlangan. Sozandalardan, arfa chalayotgan ayol tasviri juda mashhur, qolgan ikkitasi esa deyarli hech qayerda chop etilmagan.”²

Sopol idishlarga tushirilgan tasvirlarda sakkizta cholg'u ushlab turgan sozandaning qiyofasi va sopol xumdon devorining bir tomoniga bir relyefli tasvirlar ishlangan. Barcha haykalcha va relyeflar turli davrlarga mansub bo'lib, miloddan avvalgi IV-III asrlardan eramizning I asrigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.³

Amir Temur va Temuriylar davrini, mubolag'asiz o'zbek xalqining hamda O'rta Sharq xalqlarining musiqa san'ati jadal ravnaq topgan va chinakam uyg'onish davri bo'lgan deyish mumkin.

Zero, bu xalqlar yagona davlatni tashkil etib, o'zaro samarali madaniy aloqalar o'rnatibgina qolmay, ayni vaqtda osiyo va yevropaning eng yirik mamlakatlari bilan ham ma'naviy bog'lanish imkoniyatiga ham ega bo'lganlar.

Sohibqiron saroyda o'tkazilgan tantanalarda doimo musiqachilarning ijrosini maroq bilan tinglab, yangi yaratilgan asarlarga baho berishni xush ko'rgan. Uning

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 2-fevral 2022-yil, PQ-112-son.

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 8-avgust 2017-yil, PQ-3178-son.

3 T.Tojiyev

darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishi. T., 2022 (12-bet).

bu fazilatlarini merosxo'rlaridan tortib sarkardalarigacha butun saroy ahli yaxshi bilgan.

Ilk davrda "Duvozdahmaqom" butun yaqin va O'rta Sharq xalqlari madaniyatiga birday xos bo'lgan. Temuriylar davridan boshlab esa bu jarayonga muayyan mahalliy xislatlar ta'sir eta boshlagan. Natijada yaxlit tizimdan muayyan ajralgan, milliy xususiyatlarga ega bo'lgan turkum asarlar shakllana boshlagan. Birlamchi tizimdan farqli o'laroq ularda tuzilish-kompozitsiya jihatidan hamda soniga ko'ra erkinlik ustuvor bo'ladi. Shu alfozda 12 ta arab maqomi, 12 ta uyg'ur maqomi, 7 ta eron dastgohi, 7 ta ozarbayjon mug'omi, 6 ta o'zbek va tojik maqomi yuzaga keldi. Bu turkumlar ham, o'z navbatida, mahalliy musiqiy sheva ta'sirida yangi mukammal turkumlar yaratilishiga turtki bo'ldi. Shu tarzda o'zbek va tojik zaminida Shashmaqom, Xorazm maqomlari, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari, turli-tuman ko'p qismli cholg'u asarlar yuzaga keldi. "Mashhur bastakor Zaynulobiddin bin Muhammad bin Mahmud al-Husayniyning "Qonun" asari Navoiy buyurtmasi asosida yozilgan bo'lib, bu haqida muallifning o'zi muqaddimada, Navoiyga bag'ishlangan qasidada eslatib o'tadi.

Asar muqaddima va 21 ta bobdan iborat. Muallif asar 24 bobdan iborat ekanligi haqida muqaddimada yozib o'tgan. Ammo manbaning yagona Toshkent nusxasida asarning 21 bobigina saqlanib qolingan bo'lib, oxirgi uch bobi yo'qolgan. Manbada nag'ma, bo'd, jam, lahn kabi musiqiy tushunchalarga ta'rif berilgan. Husayniyning risolasi Urmaviyning "Kitabul-advor" va Sheroziyning "Durratud-toj" asarlariga asoslangan bo'lib, aksariyat hollarda ularning mazmunini qayta bayon etadi. Asarda temuriylar davrida mashhur bo'lgan 12 maqom tizimi quyidagi tartibda keltirilgan: Ushshoq, navo, busalik, rost, xusayniy, hijoziy, rohaviy, zangula, iroq, isfaxon, zirafkand, buzurg. Manbaning 16-bobi "Dar bayoni dutor" deb nomlanadi va dutor haqida ilk ma'lumotlar keltiriladi".⁴

Dutorning tarixiy shakllanishi va boshqa cholg'ular bilan uyg'unlik jihatlari uzoq o'tmishga borib taqalsada, musiqiy risolalarda XV asrdan boshlab ta'riflanib keladi. "Forobiy ma'lumotlariga qaraganda, Xuroson tanburi o'zining ko'plab belgilari bilan zamonaviy dutorni eslatadi. Lekin dutorning o'z nomi va uning barcha (shakliy, tarkibiy, ijroviy) imkoniyatlari bilan ilk bor XV asrda yashab ijod etgan musiqashunos olim Zaynullobiddin al-Husayniy o'zining musiqa ilmiga bag'ishlangan "Qonuni ilm va amali musiqiy" nomli risolasida bayon etgan. Darhaqiqat, unda ikkita torli va ularning oralig'i kvarta intervalini tashkil etuvchi, dastasiga bog'langan pardalari o'n bitta bo'lgan dutor cholg'u asbobi ta'riflanadi. Lekin qayd etish joizki, risolada tavsiflangan cholg'u har tomonlama zamonaviy dutor soziga yaqin. Davrlar osha cholg'ular o'zgarish yoki mukammallashish jarayonini o'tashi muqarrardir. Dutor O'rta Osiyoning o'zbek, turkman,

tojik, qoraqalpoq xalqlari orasida keng ommalashgan cholg'udir. Qayd etish joizki, har bir xalq dutorining oz bo'lsada, o'ziga xoslik jihatlari mavjuddir.

Natijalar: dutorning konstruktiv va akustik xususiyatlari: Dutor cholg'usi asosan tut daraxtidan tayyorlanib, ikki asosiy qismdan — kosaxona (rezonator) va dastadan iborat.

Dutor cholg'usi, asosan tut daraxtidan tayyorlanadi. Cholg'u ikki asosiy qismlarga bo'linadi: kosaxona ya'ni (rezonator) va dasta. Cholg'uning kosasi 10-12 ta yupqa qovurg'achalarni bir-biriga birlashtirib yopishtirish orqali hosil qilinadi va uning ustki qismi maxsus qopqoq bilan qoplanadi.

Cholg'uning kosasida torlar ilinadigan maxsus moslama, ya'ni ilgichlar o'rnatiladi. Dutorning dastasi cholg'u jussasiga qarab belgilanadi. Unda 14-15 ta pardalar mavjud bo'lib, ular ichak, zamonaviy jarayonda jilka ya'ni "Sun'iy ip" dan bog'lanadi va torlari ipakdan eshilib tayyorlanadi. An'anaviy dutor pardalari diatonik tovushqator tarkibida joylashgan. Dastaning boshlanish qismida esa ikkita maxsus quloqlar joylashgan. Quloqlar tortish va cholg'uni sozlash uchun qo'llaniladi. Cholg'uda ovoz tarannumining sof holda taralishi uchun ikkita xarrak o'rnatiladi.

Cholg'uning yuqori qismida joylashgan xarrak, shayton xarrak deyiladi va birinchi parda bilan quloqlar orasida joylashadi. Pastki xarrak maxsus shaklda yasaladi va cholg'uning sozlanishiga ko'ra qopqoq ustiga o'rnatiladi.

Dutor o'zbek xalq cholg'ulari orasida o'zgaruvchan xususiyatli cholg'ular tarkibiga kiradi. Shu bois, bu toifadagi cholg'uning sozlari ya'ni ijro uchun kerakli tovushga sozlanib olinadi. Dutor ijrochilik amaliyotida ijro etilayotgan asarga qarab turlicha, ya'ni kvarta, kvinta, qo'shtor ya'ni unison, oktava va sekunda intervaliga sozlanadi.⁵

Muhokama: ijro uslublari va zarb texnikasi: Dutor ijrochiligining jozibasi uning rang-barang zarblari va bezaklaridadir. Tadqiqot davomida aniqlangan asosiy zarblar: 1. Yakka zarb: "P" (panja - pastga) va "B" (bosh barmoq - yuqoriga) harakatlari orqali amalga oshiriladi. 2. Terma zarb (Tanovor zarbi): Bosh va ko'rsatkich barmoqlar ishtirokida ma'lum tartibda ("k" va "b" belgilari) uriladi. 3. Teskari zarb: Notada "T" harfi bilan belgilanib, kuyni jozibali bezashda xizmat qiladi.

Ijrochilik amaliyotida, an'anaviy ijro uslubida kvinta sozi keng qo'llaniladi. Kvarta-tanovor sozi, unison-qo'shtor, oktava-bayot sozi nomlari bilan ham yuritiladi. Sekunda va tersiya intervali asosida sozlash zamonaviy jarayonda juda kam qo'llaniladi. Dutor an'anaviy cholg'ular orasida turli va rang-barang zarblarga boy, nafis va nazokatli, falsafiy ovozga boy cholg'u soz sifatida turli yoshdagi ijrochilar amaliyotida keng qo'llanilib kelinadi.

4 T.Zufarov. "Soz va sozgarlik tarixi", T-2014 (6-7 betlar).

5. Qo'ziyeva Gulasal. "Abdurahim Hamidov ijro uslubini ustoz-shogird an'anasida davomiyligi". Bitiruv malakaviy ishi. Toshkent-2019. (9-bet).

Yakka zarb - oddiy zarblardan biridir. Sozanda dutorni dastlabki o'rganish davrida chap qo'lda quyidagi belgilar asosida "P" pastga va "B" yuqoriga zarblar asosida ochiq torda harakatlantiriladi. P – "pastga" harakat belgisini bildiradi, bunda bosh barmoqdan tashqari barcha barmoqlar pastga harakatlanadi. Pastga zarb - yuqoridan pastga bosh barmoqdan tashqari, qolgan to'rt barmoq pastga harakatlanadi. Bu zarb P (panja) belgisi bilan ko'rsatiladi. V – "yuqoriga" harakat belgisi, bosh barmoq pastdan yuqoriga harakatlanadi, bunda bosh barmoqqa qolgan to'rtta barmoq yig'ilgan holatda qo'yilib, birga harakatlanadi. Yuqoriga zarb pastdan yuqoriga bosh barmoq bilan uriladi. Zarb kuchli chiqishi uchun bosh barmoq tagidan ko'rsatkich va o'rta barmoqlar itarib chiqaradi. Bu zarb "B" ya'ni bosh barmoq belgisi bilan belgilanadi.

Terma zarb ya'ni "Tanovar zarbi" dutor ijrochiligida keng qo'llaniladigan zarblardan hisoblanadi. Asosan bosh va ko'rsatkich barmoqlar ishtirokida amalga oshiriladi. Zarb yuqoridan pastga urila boshlaganda oldin ko'rsatkich barmoq keyin bosh barmoq torni urib pastga harakat amalga oshiriladi. Bu zarb notada "k" belgisi bilan ko'rsatilgan. Zarb pastdan yuqoriga urilganda esa oldin bosh barmoq torni urib yuqoriga harakat qiladi, keyin esa ko'rsatkich barmoq sudralib chiqadi. Uni "b" belgisi bilan ko'rsatiladi. To'rtta o'n olitalik notalarning ikkitasi pastga, ikkitasi yuqoriga urib ijro etiladi. Birinchi zarbda ko'rsatkich barmoq bo'sh holatda pastga qarab harakatlanadi. Ikkinchi zarb ketidan bosh barmoq ham xuddi shu holatda pastga harakatlanadi. Uchinchi zarb bosh barmoq yuqoriga harakatlanadi. To'rtinchi zarb ketidan ko'rsatkich barmoq xuddi shu holatda yuqoriga harakatlanadi.

Teskari zarb notada katta "T" harfi bilan ifodalanadi va shu zarb ishlatiladigan taktning boshlanishiga yozib qo'yiladi. Bunday zarb o'zbek kuylarini jozibali bezab ifodalashda qo'llaniladi. Teskari zarb bilan to'xtash ikki xil bo'ladi. Ayrim hollarda ushbu zarb kuyning xarakteriga qarab turli ko'rinishlarda uchraydi.

Dutor ijrochiligining jozibasi, rang-barang zarblaridan hosil bo'ladigan sadolarni turli bezak va jilolar bilan bezashdir. Shu bois dutorga xos bezak - qochirimlar an'anaviy ijrochilikda munosib o'rin olgan. Ular sozandalar orasida qochirim, kashish, nolish, to'lqinlatish kabi iboralar bilan ataladi. Har bir bezak o'z ko'rinishi, ijro uslubi va shunga xos jozibali sadosiga egadir. Inson tafakkuri torli cholg'uni ixtiro etib, uni ma'lum darajada rivojlantirgandan so'ng uning umumbashariy rivoji har bir xalqning madaniyati, ma'naviyati va an'anasi asosida shakllanib rivoj topadi. Cholg'ularning har bir xalqning o'ziga xos va turli vositalar orqali ijro etiladigan namunalari yuzaga keladi. "Oldiniga torli cholg'ularning shakllari", yoysimon bo'lgan, ya'ni, yog'ochli egma tanali bo'lgan va unga bir va bir nechta torlar tortilgan. Vaqt o'tishi bilan ushbu taxtali tana to'g'rilanib borgan va dasta yoki cholg'u asbobi dastasi shakliga kelgan. Shu bilan birga dastaga mos rezonator vazifasini bajaradigan kosaxonalar, avvaliga

jonzotlardan toshbaqa, zihr yoki o'simlik mevalari qovoq, kakos yong'og'i va h.k. birlashtirilgan. Taraqqiyot jarayoni esa har bir xalqning o'z cholg'u asboblari yuzaga kelishiga sabab bo'lgan.¹ Dutorning kosasiga uzunligi 7.0-7.5 ditsemetrgacha bo'lgan dastak ulanib, unga 13-14 ta ipakli parda bog'lanadi, ba'zan esa pardalar o'rnida yog'och yoki suyakdan ishlangan maxsus moslamalar yopishtirib qo'yiladi. Dutorning ipakdan eshilgan ikki tori ijro etilayotgan kuyga muvofiq holda bosh parda "Kvinta", o'rta parda "Kvarta" yoki qo'sh parda "Prima yoki oktava"larga sozlanishi mumkin. Ikki oktavadan ziyod "Xromatik xususiyatli" tovush qatori unda xalq kuylari bilan bir qatorda maqom yo'llarini ham ijro etish imkonini beradi. Dutorning o'ziga xos mungli va mayin ovoz tarovati so'lim aytilarga uyg'un, jo'r bo'ladi va ayniqsa, xotin-qizlar tomonidan keng qo'llaniladi.

Xulosa:

Tadqiqotimiz natijalari shuni ko'rsatadiki, dutor cholg'usi shunchaki musiqiy asbob emas, balki o'zbek xalqining ko'p asrlik ma'naviy va estetik tafakkuri mahsulidir. Maqola doirasida ko'rib chiqilgan tarixiy manbalar, xususan, Zaynulobiddin al-Husayniyning "Qonun" risolasi va arxeologik topilmalar dutorning shakllanishi uzoq va murakkab evolyutsion jarayonni bosib o'tganligini tasdiqlaydi. Zamonaviy jarayonda xonanda va sozandalikda yuksak mahoratga erishgan namoyandalarning ijodini alohida o'rganish va ilmiy asosda nashr etish kechiktirib bo'lmaydigan vazifadir. Zero, o'zbek musiqa san'ati tarixida sozanda va xonandalar faoliyatini yoritishga bag'ishlangan monografiyalarda ularning hayot yo'li, ijodiy maktabi, ustoz-shogirdlik an'analari va noyob ijro uslublari hujjatlashtirish an'anasi shakllangan. Bu kabi ilmiy ishlar milliy merosimizni kelajak avlodga aslidek yetkazishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Maqola doirasida tahlil qilingan dutor cholg'usining o'ziga xos konstruktiv tuzilishi, boy zarb turlari (yakka zarb, terma zarb, teskari zarb) va murakkab ijro texnikasi o'zbek milliy cholg'u ijrochiligining naqadar keng va murakkab qatlam ekanligini anglatadi. Dutorning ikki oktavadan ziyod xromatik imkoniyatlari unda ham xalq kuylarini, ham monumental maqom namunalari mahorat bilan ijro etish imkonini beradi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, bugungi kunda o'sib kelayotgan yosh avlodni milliy va jahon musiqa san'atining mumtoz namunalari ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Ushbu go'zal san'atimiz durdonalarini yoshlarga tanitish, ularning darslik va o'quv qo'llanmalariga bo'lgan ehtiyojini qondirish hamda milliy cholg'ular targ'ibotini yanada kuchaytirish soha mutaxassislarining zimmasidagi ulkan mas'uliyatdir. Dutor kabi milliy cholg'ularni ilmiy tadqiq etish orqali biz nafaqat o'tmishimizni anglaymiz, balki kelajakdagi milliy o'zligimizni ham mustahkamlaymiz.

¹ Rasultoyev. J. O'zbek dutor ijrochiligi. T., 1997 (20-bet).